



International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Journal home page:
<https://journal.jbnuu.uz/>



PRINCIPLES OF DETERMINING, DEVELOPING AND MANAGEMENT OF CREATIVE ABILITIES IN STUDENTS

Normurod Alimov¹

Makhliyo Sattorova²

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

Creativity, talent,
communicative
characteristics, working
characteristics, professional
education, professional-
creative activity, upbringing,
education, creativity,
pedagogical activity,
creativity

ABSTRACT

This article discussed how to encourage young students to work on themselves regularly and engage in research activities, to show their talents, based on what criteria talented young people should be selected and how to improve and develop them.

2181-3884/©2023 in Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

DOI: 10.5281/zenodo.7875301

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan, normurod.1969@mail.ru

² Doctoral Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan, makhliyosattorova87@gmail.com

TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI ANIQLASH, RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH ASOSLARI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Ijodkorlik, iqtidorlilik, kommunikativ xususiyatlar, ishchi xususiyatlar, kasbiy ta'lim, kasbiy-ijodiy faoliyat, tarbiya, ta'lim, ijodkorlik, pedagogik faoliyat, kreativlik

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Talaba yoshlarni o'z ustida muntazam ishlash va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga undash, ularning iste'dodlarini namoyon etish, iqtidorli yoshlarni qanday me'zonlar asosida tanlab olish va uni qanday takomillashtirib, rivojlantirish kerakligi haqida so'z yuritiladi.

1. KIRISH.

Ma'naviy yetuk va barkamol yoshlar tarbiyasiga qaratilgan davlat siyosati tarbiya usullariga chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan, oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil tafakkuri, ijodkorligi va intellektual salohiyatini oshirishga uzviylikda amalga oshiriladi. Bu borada Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o'zgarishlar, keng ko'lamli dasturlar yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat" [1; 412-b.]. "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 sentyabrdagi PF-6309-son Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra talaba yoshlarni o'z ustida muntazam ishlash va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga undash, ularning iste'dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimli va iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash masalalariga a'lohida e'tibor qaratilgan.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Oliy ta'lim muassasalari avvalo iqtidorli yoshlarni qanday me'zonlar asosida tanlab olish va uni qanday takomillashtirib, rivojlantirish kerakligini ilmiy asoslashni taqozo etadi. Shu ma'noda ushbu yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib borish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xo'sh iqtidorli talabaning iqtidorlilik darajasi qanday aniqlanadi va uni qanday rivojlantiriladi? Maqolada ana shular haqida so'z yuritiladi.

Ijodkorlikdagi iqtidorlilik belgisi avvalo har bir soha, mutaxassislik yoki fan bo'yicha mutasaddi murabbiylar tomonidan aniqlab olinadi. Bunda bitta «qolip»ga tushadigan mezon yoki o'lchov bo'lishi mumkin emas. Bu yerda iqtidorlilikni aniqlash individual imkoniyatlarni hisobga olish tamoyiliga asoslangan bo'lishi muhim hisoblanadi. Bu jarayon birinchi bosqichda shaxsni iqtidorli deb tan olishni belgilovchi sifatlarning eng muhimlari ro'yxatini tuzib olishni talab qiladi.

Ikkinchi bosqichda esa ana shu belgilarni takomillashtirish va rivojlantirish sharoitlari muvofiqligini ta'minlovchi vazifalarni shakllantirish va uni hal qilish yo'nalishini

to'g'ri belgilab olish zarur.

Uchinchi bosqichda shaxsni tavsiflovchi iqtidorlilik belgilarining qay darajada rivojlanib, takomillashib borayotganligini baholash ishlari amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda talabani ijodkorlik bo'yicha iqtidorlilikni belgilovchi kuchli va kuchsiz (bo'sh) tomonlari ro'yxati tuzilib qaytadan takomillashtirish rejasi ishlab chiqiladi.

Beshinchi bosqichda belgilangan muddatda takomillashtirish zarur bo'lgan iqtidorlilik belgilari holati natijalari tahlil qilinadi.

Iqtidorlilikning barcha belgi va sifatlarini umumiy holda ikkita guruhga bo'lish mumkin (I-bosqich).

I. Har tomonlama aloqador sifatlarini belgilovchi («kommunikativ») xususiyatlari guruhi;

1. O'ziga bo'lgan ishonch;
2. Tanqidga, o'ziga bildirilgan salbiy fikrlarga munosabati;
3. Ishni batartib bajarish kobiliyati (taktikaliligi);
4. Uddaburonligi;
5. Jonkuyarligi;
6. Umuminsoniy fazilati;
7. Kishilarga yoqimlilik, yaqinligi va hokozo.

II. «Ishchi» xususiyatlari guruhi:

1. Maqsad sari intiluvchanligi;
2. Mohirligi va sifatlilikka moyilligi;
3. Fikrida qat'iyligi;
4. Vaziyatni tez va chuqur anglay olishi;
5. Mustaqilligi;
6. Harakatchanligi;
7. Tashabbuskorligi va hokozolar.

Mazkur belgilanishlar yetarli bo'lmasa uni sharoitdan kelib chiqib o'zgartirish (kengaytirish) ham mumkin.

Boshlang'ich saviyadan yuqori saviyalarga takomillashtirish bosqichlari ketma-ket og'ishmay amalga oshirishni ta'minlash maqsadida biz tomonimizdan bir necha darajadagi mezon ishlab chiqiladi.

1-daraja. Masala (muammo)ni rahbarning o'zi qo'yadi va o'zi yechadi. Talaba uni o'rganib chiqadi va yodida saqlaydi.

2-daraja. Rahbar masala yoki biron muammoni qo'yadi, uni hal qilish shartlarini tushuntiradi, mumkin bo'lgan barcha variantlari bilan tanishtiradi va shular ichidan eng samaralisini tanlashni taklif qiladi.

3-daraja. Rahbar faqat muammo va topshiriqni aytadi. Talabaga uni har tomonlama tadqiqot qilish va hal qilish yuklatiladi.

4-daraja. Talabani o'zi biron muammoni payqaydi va uni o'zi hal qiladi.

Iqtidorlilik xususiyati va belgilarining qay darajada muvaffaqiyatli takomillashayotganligini baholash uchun (III bosqich) uch balli tizimdan foydalaniladi. Talabning to'liq bajarilishini «2» raqami bilan, qisman bajarilishini «1» bilan, bajarilmaganini «0» bilan belgilaymiz.

Yuqoridagi bizning misolda iqtidorlilikni belgilovchi sifatlarning ikki guruhi bo'yicha takomillashtirish darajasini aniqlashda har bir guruhdagi 7 tadan, jami 14 ta talabni e'tiborga olganda, uning to'liq bajarilishi uchun talaba («2» baldan 14×2) 28 ballga ega bo'lishi kerak va bu 100 foizga to'g'ri keladi. Aytilganlarni jadval tariqasida quyidagicha ifodalash mumkin. 1-jadval.

Asosiy talablar	Talabanning iqtidorlilik sifatlari	
	Aloqador («kommunikativ»)sifatlar guruhi	«Ishchi» xususiyatlari guruhi
1.	2	0
2.	1	1
3.	0	0
4.	1	1
5.	1	0
6.	2	2
7.	0	2
Ballar	7	6

1-jadval. Talabalarning iqtidorlilik sifatlarini baholash

Agar Ushbu talab 90 foiz va undan yuqori bo'lsa - yuqori saviyaga; 70-80 foiz bo'lsa - muvofiq (optimal); 50-69 foiz bo'lsa – o'rtacha va 30-40 foiz bajarilishi boshlang'ich saviyaga to'g'ri keladi.

Tabiiyki, har – xil sharoitlarda masalalarning qo'yilishiga, murakkabligiga mos holda talab bandlari soni va umumiy ballari soni ham boshqacha bo'lishi mumkin.

Mazkur jadval asosida rahbar har bir talabning qaysi talabni «to'liq», «qisman» va «bajarmagan» ligi haqida ma'lumotga ega bo'lib, ish bo'yicha unga kerakli maslaxatlar beradi.


Masalan, bizning holda «kommunikativ» xususiyatlari guruhida 3-bandi va «ishchi» xususiyatlari guruhidan 1-bandi, 3-band hamda 5-bandlarga asosiy e'tiborni qaratish zarur bo'ladi va shu bo'yicha uni rivojlantirish ustida ko'proq ish olib borish belgilanadi. Undan keyin esa talabning «1» ball bilan baholangan (talabning «qisman» bajarilishi) bandi bo'yicha maslahatlar beriladi.

Ishga bunday yondoshish, ya'ni iqtidorlilik sifatlarini aniq belgilab, uni chuqur tahlil qilish bilan tegishli zarur maslaxatlar berib, kuzatish, talabalarning iqtidorlilik faoliyatini muvofiq boshqarish imkonini beribgina qolmasdan, talabning qaysi sifatini ko'proq rivojlantirish zarurligini payqab, unga mas'uliyat bilan qarashiga va bo'lajak kasbiga

tushungan holda mehr qo'yishiga olib keladi.

5-bosqichda talaba iqtidorlilik belgisi va xususiyatlarining qay darajada takomillashganligini ko'rsatuvchi grafik qilinadi.(1-rasm)

Buning uchun absissa o'qiga ma'lum masshtabda iqtidorlilikni belgilovchi xususiyatlari guruhlar ikkiga bo'linib, uning ikki tomoniga qo'yiladi. Ordinata o'qiga esa ana shu mezonlarni baholash ballari qo'yiladi.



1-rasm. Iqtidorlikni takomillashtirish dinamikasi sxemasi.

3. XULOSA.

Bo'lajak mutaxassislarning iqtidorlilik va kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda talaba o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Talabalar ta'lim olish bilan bir qatorda kasbiy-ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, kasbiy xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. U o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi hamda o'zida quyidagi kreativlik malakalarini namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;

- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish kabilar.

Shunday ekan, talaba-yoshlarni o'z ustida muntazam ishlash va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga undash, ularning iste'dodlarini namoyon etish, ijodkorlik qobiliyatlarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish lozim.

Talaba-yoshlarda o'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishning muhim va asosiy omillaridan biri-bu talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga undash, ularning iste'dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimli va iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash masalalariga a'lohida e'tibor qaratish lozimligi asoslandi va ijodkorlik qobiliyatlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi, tashkiliy tuzilmaviy sxemasi ishlab chiqildi.

Talaba-yoshlarning iqtidorlilik sifatlarini aniq belgilab, uni chuqur tahlil qilish bilan tegishli zarur maslaxatlar berib, kuzatish, talabalarning iqtidorlilik faoliyatini muvofiq boshqarish imkonini beribgina qolmasdan, talabaning qaysi sifatini ko'proq rivojlantirish zarurligini payqab, unga mas'uliyat bilan qarashiga va bo'lajak kasbiga tushungan holda mehr qo'yishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алимов Н. Н. СКВОЗНОЕ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЕ ТВОРЧЕСТВО ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ //INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. – 2020. – Т. 1. – №. 5. – С. 400-404.

2. Алимов Н. Н., Турабов А. М., Ташбаев А. К. Поэтапное развитие творческой деятельности студентов-важный фактор при повышении качества подготовки будущих специалистов //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 99-102.

3. Nosirovich A. N. et al. AMALIY MASHG'ULOTLARDA VA DARSDAN TASHQARI ISHLARDA O 'QUVCHILAR TEXNIK IJODKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 297-303.

Тагаев Х. и др. Оценка творческих работ, представленных на смотр-конкурс" Научно техническое творчество студентов"(НТТС) //Общество и экономика постсоветского пространства. – 2014. – С. 165-170.

4. Nosirovich A. N. et al. CYBERSPACE IN THE REAL WORLD //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 410-414.

5. Alimov N., Gulrukh F. Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 38-41.

6. Nosirovich A. N. The Methodology of Preparation of Students of Vocational Schools and Colleges for Technical Creative Activity //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 2. – C. 1470-1485.

7. Sattorova Mahliyo Burxanovna. (2022). TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 1(2), 436–440. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/227>

8. Burxonovna S. M. DIGITAL COMMUNICATIONS IN PEGAGOGIG EDUCATION //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 827-829.

9. Olimov Q.T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.

10. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent:

11. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.:Fan va texnologiyalar, 2007.